

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH MUAMMOLARI

Ashuroxunova Iroda Tohir qizi
Guliston davlat universiteti talabasi
E-mail: irodaashuroxunova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish va yuksaltirish muammolari, mazkur masala yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili, shuningdek, bu borada ilgari surilayotgan takliflar haqida atroflicha fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqni qo'llash, jamiyat, qonun ustuvoligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da hamda "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi"da inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish¹, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi"da aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o'z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <http://lex.uz/uz/docs/-5841063>

bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish bo'yicha maqsad va vazifalar belgilab olingan.

Bugungi kunda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri sifatda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda huquqiy ong va huquqiy madaniyat kategoriyalariga ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflarni o'rganib chiqsak, huquqiy ong - bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his-tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir, huquqiy madaniyat esa kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi bo'lib, jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.[2]

Huquqshunoslik o'ld ilmiy adabiyotlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning samarali mexanizmlaridan biri bu huquqiy tarbiya ekanligi haqida fikr-mulohazalar mavjud. Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi va o'zgarishida muhim vosita hisoblanadi. Huquqiy tarbiya huquqiy bilimlarni yoyish, to'g'ri xulqning muhimligi va qimmati, ularni qabul qilish va keyinchalik o'zlashtirib olish maqsadida shaxs va jamiyat hayotidagi qonuniylik va boshqa huquqiy holatlardan iborat.

Mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ma'lum darajada so'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilinganligi, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilganligi bilan bog'liq. Shunday bo'lsa-da, jamiyatimizda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. ***Demak, O'zbekiston Respublikasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni tizimli o'rganish hamda yuridik fan va amaliyot nuqtayi nazaridan asoslantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.***

Tadqiqotning maqsadi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini nazariy-amaliy jihatlarini ilmiy tahlil qilish, O'zbekiston

Respublikasida qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish eng zaruriy shart ekanligi mohiyati, mazmunini ochish va ushbu sohada amalga oshirib kelinayotgan faoliyatni yanada takomillashtirish, aholi qatlamlarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan samarali mexanizmni yartishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

O'zbekiston Respublikasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning rivojlanish darajasi hamda mazkur jarayonga to'sqinlik qiluvchi omillarni tadqiq etish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishining O'zbekiston Respublikasi qonun hamda huquq ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashda tutgan o'rni va rolini aniqlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimining muammolarini va ularni hal etishning masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish;

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tendensiyalarini o'rganish, bu boradagi huquqiy islohotlarning tadrijiyligi va izchilligini asoslantirish;

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimining davlat boshqaruvida tutgan o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish va undagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishga oid amaliy takliflar berish;

xorijiy mamlakatlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimining xususiyatlarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish asosida ijobiy huquqiy tajribani mamlakatimizga tatbiq etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy yangiliklardan o'qitishda foydalanishning ahamiyati yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ayrim jihatlari milliy huquqshunos olimlardan E.Abzalov, N.Vaxobov, D.Dehqonova, X.Zakirov, Z.Islomov, I.Kudryavtsev, Z.Madaliyeva, X.Mamatov, O.Nasriddinova, X.Odilqoriev, Yo.Sadikova, A.Saidov, U.Tojixonov, N.Saydalixodjaeva, R.Turdiboeva, A.Xamraev, Sh.Yakubov hamda siyosatshunos olimlardan B.Jo'raev, S.Jo'raev, L.Tangriev, Sh.Ermatov kabilarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan.

Xorij mamlakatlari huquqshunos olimlaridan Ye.Agranovskaya, R.Bayniyazov, N.Voplenko, O.Demko, Yu.Dmitriev, N.Keyzerov, A.Malyko, N.Matuzov, V.Salnikov, A.Veyl, D.Iston, Dj.Dennis, S.Palonskiy, Dj.Piaje, Dj.Kevin, Dj.Torni-Purta, S.Stevenson, L.Matveev, G.Matveev va boshqalarning ilmiy ishlarida yoshlarning huquqiy va siyosiy madaniyatini yuksaltirishning ayrim jihatlari o'rganilgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari, asosan, huquqiy va siyosiy madaniyatning ayrim umumiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda

huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksalishining qonun ustuvorligi hamda qonuniylikni mustahkamlashda tutgan o'rnini, davlat boshqaruvi tizimidagi ahamiyati, shuningdek, mazkur sohada mavjud muammolarga bevosita yondashilmagan. Shu sababli jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksaltirishga oid ta'kidlangan masalalarini kompleks tadqiq etish dolzarb sanaladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi raqamlashtirish sharoitida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish, bu borada tizimli ravishda ilmiy -tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish muhim sanaladi. Xususan, biz tomonimizdan olib borilayotgan ilmiy izlanishimizda bildirilgan takliflar, umumlashtirilgan xulosalar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga mo'ljallangan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, mazkur taklif va xulosalardan davlat boshqaruvi hamda tegishli huquq sohalari bo'yicha o'tiladigan fanlardan tayyorlandigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va namunaviy o'quv dasturlarda ko'rsatilgan mavzularni yoritishda, kelajakda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha olib borilishi rejalashtirilgan bitiruv malakaviy ishlarida ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijasida aniqlangan nazariy ma'lumotlardan umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalari o'quv yuklamasiga kiritilgan huquqiy fanlarning o'quv jarayonlarida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent. "Yuridik adabiyotlar publish". 2022.
2. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. "Yuridik adabiyotlar publish". 2020.
3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
4. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi.